



O'zbekistonda  
turizmni rivojlantirishda tarixiy  
muzeylarning o'mi

XALQARO ILMIY - AMALIY  
KONFERENSIYASI

23-MART, 2021-YIL

SHAHRISABZ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI,  
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI,  
MADANIYAT VAZIRLIGI**

**QASHQADARYO VILOYAT HOKIMLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI SHAHRISABZ FILIALI**

**SHAHRISABZ DAVLAT MUZEYI QO'RIQXONASI**

**QASHQADARYO VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI  
DAVLAT MUZEYI HAMKORLIGIDA**

**O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA  
TARIXIY MUZEYLARNING O'RNI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi  
23-mart, 2021-yil**

**THE ROLE OF HISTORICAL MUSEUMS IN THE  
DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN**

**International scientific-practical conference  
march 23, 2021**

**РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ МУЗЕЕВ В РАЗВИТИИ  
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Международная научно-практическая конференция  
23 марта 2021 г.**

**Shahrisabz – 2021**

## **ANJUMAN TASHKILIY QO'MITASINING TARKIBI:**

<b>A.Umarov</b>	TDPU rektori, tashkiliy qo'mita raisi
<b>B.Abdullayeva</b>	TDPU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini
<b>A.G'aniyev</b>	TDPU Shahrisabz filiali direktori, a'zo
<b>U.Marasulova</b>	TDPU Shahrisabz filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinnbosari, a'zo
<b>T.Xudoyqulov</b>	TDPU Shahrisabz filiali "Chet tillar va gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, a'zo
<b>A.Muxammadiyev</b>	TDPU Shahrisabz filiali "Pedagogika" fakulteti dekani, a'zo
<b>A.Sagdullayev</b>	t.f.d., akademik, O'ZMU, a'zo
<b>O'.Mavlonov</b>	t.f.d., prof., O'ZMU, a'zo
<b>B.Aminov</b>	t.f.n., dots., O'ZMU, a'zo
<b>SH. Voxidov</b>	t.f.d., prof., Tojikiston Panjikent pedagogika instituti, Tojikiston, a'zo
<b>S.Abdirakmanov</b>	"Sulaymon-TOO" nomli milliy tarixiy-arxelogik kompleks muzey bosh direktori, Qиргизистон, a'zo
<b>A.Omelchenko</b>	t.f.n., Rossiya davlat Ermitaj muzeyi xodimi, Rossiya, a'zo
<b>A. Saripbekova</b>	M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, Qozog'iston, a'zo
<b>B.Eshov</b>	t.f.d., prof, QarDU, Ijtimoiy fanlar va tarix fakulteti dekani, a'zo
<b>B.Mamadiyev</b>	Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi direktori, a'zo

### ***Taqrizchilar:***

<b><i>B. Eshov</i></b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b><i>Yu. Ergasheva</i></b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>

**Pedagogika fanlari nomzodi U.Marasulovaning  
umumiy tahriri ostida**

**To'plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning  
haqqoniyligiga mualliflar mas'uldirlar.**

Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali navbatdan tashqari Kengashining  
3 –sonli Qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.

## KIRISH SO‘ZI

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston xalqining beباھو tarixiy, madaniy hamda ma’naviy merosini asrab-avaylash, chuqur o‘rganish, yosh avlodga targ‘ib qilish, muzeylear faoliyatini doimiy takomillashtirib borish, ichki va tashqi turizmni har tomonlama rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Darhaqiqat, tarix tajribasi hamda madaniy merosni o‘rganish va targ‘ib etish-hozirgi davrda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy o‘zgarishlarni yanada chuqurroq idrok etish va tushunib yetishga, istiqlol yo‘lida yangidan-yangi taraqqiyot uchun ulkan zamin yaratish hamda shu asosda jamiyat rivojiga hissa qo‘sish uchun keng imkoniyatlardan yaratadi. Mavjud imkoniyatlardan maksimol darajada foydalanish esa davr talabidir.

Ushbu davr talabidan kelib chiqib Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Shahrисабз filiali tomonidan “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy muzeylarning o‘rnı” mavzusida xalqaro ilmiy amaliy konferensiya tashkil etildi. Bu konferensiyaning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda ichki va tashqi turizmni yanada rivojlantirish istiqbollarini o‘rganish; xalqaro turizm uchun mamlakatdagи mavjud imkoniyatlarni tahlil etish; ichki va ekoturizm imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish; turizmni xalqaro miqyosda taraqqiy etishida muzeylarning ahamiyatini ko‘rsatib, ilmiy asoslashdan iborat.

Shunday ekan, hozirgi zamонавиy tarixiy haqiqatida – O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng – ma’naviy merosni, jumladan, moddiy madaniyat sohalarini saqlash, muhofaza qilish, tiklash va ularni rivojlantirish muammolari tarixiy ahamiyatga va qimmatga egadir. Zero, ular o‘zbek xalqining ma’lum tarixiy davrlarida moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalari sifatida milliy tenglikning umumiy tamoyillari in’ikosi bo‘lib, kelgusi avlod uchun muhim ma’naviy vazifani bajaradi.

O‘zbek xalqining ko‘hna va boy moddiy - madaniyati asrlar osha qudratli ma’naviyat manbai bo‘lganligi o‘tmish tarix zarvaraqlaridan ma’lum. Ko‘p asrlik o‘zbek xalqining moddiy madaniyati hozirgi kunda juda boy an’anaviy va zamонавиy namunalarga ega. Ular ma’lum vaqtarda o‘zgarishlar jarayoniga duch kelgan. Hozirgi saqlanayotgan muzey eksponat namunalari umuminsoniy sivilizatsiyaning noyob qadriyati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning bugungi tashqi iqtisodiy faoliyatida turizmning tarixiy-madaniy yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish esa, milliy-madaniy merosni asrash, restvaratsiya qilish, mavjud muzeylear ishlarini takomillashtirish, ixtisoslashgan mintaqaviy muzeylear tashkil etishni tarmoqlarida turistik hamda tarixiy-madaniy imkoniyatlarni keng targ‘ibot etish talab etiladi.

Tashkil etilayotgan bu konferetsiya ushbu vazifalarning bajarilishida muayyan darajada xizmat qilib, ushbu konferensiya ilmiy to‘plamidagi maqolalar tarixiy geografiya bilan ichki turizmnining bog‘liqliligi, tarixiy o‘lkashunoslikni turizm va muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tahlillar, Qashqadaryo vohasida turizmni rivojlantirish istiqbollarini, muzey eksponatlarini asrab-avaylash texnologiyalari, ochiq muzeylear, muzey pedagogikasi kabi masalalarga bag‘ishlangan.

*Alisher Yusubjanovich Umarov,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti rektori*

## **ЎҚУВЧИЛАРНИ ВАТАНПАРVARЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИНИ РОЛИ**

**Ph.D. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович**  
*ТВЧПДИ Гуманитар фанлар факультети,  
Тарих кафедраси катта ўқитувчиси,  
(Ўзбекистон)*

Бугун жамиятимиз шахсни маънавий-аҳлоқий жиҳатдан тарбиялаш борасида жиддий муаммоларга дуч келмоқда. Мазкур муаммоларга гиёҳвандлик, алкоголизм, жиноятчилик, ёшлар ўртасида салбий гоя ва мағкураларнинг оммалашиб бораётганини мисол қилиш мумкин.

Миллий, маънавий қадриятларга, аввало аҳлоқий қадриятларга бўлган эътибор ўрнига, ёшлар орасида лоқайдлик, худбинлик, сабабсиз тажовузкорлик, озодлик тушунчасини истаган ишни қилиш сифатида тушуниш, катталарга нисбатан эҳтиром кўрсатмаслик каби иллатлар бўй чўза бошлади. Шу боис, ўқув масканларида ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг яхлит тимизини ишлаб чиқиш болалар ва ёшларда фуқаро сифатида ўзини ўзи англаш туйгусини шакллантириш ва маънавиятли қилиб тарбиялаш билан bogлиқ муаммоларни енгиш имконини беради. Бу учун ўқувчиларда бунёдкорлик руҳини, ўтмиши, бугуни ва келажаги учун масъулият хиссини шакллантириш учун шароит яратиш лозим.

Аҳлоқий-инсоний қадриятларни тиклаш учун музей иши, таълим ва маданиятни интеграция қилиш жараёни жуда муҳимдир. Улар ягона бир тизимга бирлаштирилса, музей ва таълим киши маънавиятини юксалтириб, унда ватанпарварлик ҳиссини шакллантиради.

Ватанпарварлик тарбияси педагогик вазифа ҳисобланади ва жамиятнинг маънавий ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида муҳим ўрин эгаллади. Ватанпарварлик тарбияси тизими ўқувчиларнинг Ватанни ҳимоя қилиш бурчини бажариш истаги ва қобилиятининг шаклланишига, болаларни нафақат билим эгаллаш ва ўз ҳалқи қадриятларига ҳурмат руҳида тарбиялашга, балки бошқа ҳалқ, уларнинг маданияти, урф-одати ва ирқий ҳолатларга тоқатсизлик билан ёндашишга йўналтирилган билиш фаолиятини ташкил этиш мазмуни, шакли ва методлари мажмуидир.

Музей педагогикаси тарихий, маданий таълим билан bogлиқ муаммоларни ечишда ўқитувчи имкониятларини сезиларли даражада кенгайтиради. У болаларнинг эътиборини уни ўраб турган ходисаларга жалб қилишга каратилган бўлиб, музей, ундаги нодир нарсаларнинг аҳамиятини ҳис қилишга, ўтмиш меросимизни, оиласвий ёдгорликларни қадрлашга ёрдам беради. Буларнинг барчаси ўқувчилар ҳаётини янада қизиқарли ва таассуротга бой қилади, уларнинг маданиятини оширади, ақлий салоҳиятини кўтаради, дунёнинг англашга йўл кўрсатади. Ватарпарварлик тарбияси тизимининг таркибий қисмларига ўқув жараёни, синфдан ташқари ва мактабдан ташқари ишларни кўрсатиш мумкин. Ватанпарварлик тарбиясининг замонавий шакллари сифатида педагоглар қуидагиларни кўрсатишади: бошқарув ва ўзини ўзи бошқариш шакллари, когнитив шакллар, кўнгилочар шакллар каби қисмларга бўлинувчи жамоавий, гурух, индивидуал шакллар. Музей ижтимоий-маданий ҳаётнинг бир қисми бўлиб, у киши фаолиятининг ижтимоий, моддий ва маънавий шартлари, музей-педагогикаси фаолияти натижасида шаклланадиган муносабатлар сифатида намоён бўлади. У бир қанча компонентларни ўз ичига олади: музей яқинидаги жой, музей биноси, экспозициялар, экспонатлар. Музей педагогикаси қуидаги асосий педагогик муаммони ечишга имкон беради: болани билим олишга қизиктириш, Ватанини севиши, унинг тарихий-маданий мероси, ўз аждодлари, ўз илдизини ўрганишга интилиши, музей орқали ўз шахри, қишлоғи, оиласи тарихи билан танишиши учун қандай ўқитиши керак?

Музей педагогикаси воситасида ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш моделини амалга ошириш— ўқувчиларни ижодий фаолият, ўқув машгулотидан ташқари ижодий ривожлантирувчи ишларга жалб қилиш орқали уларда ватанпарварлик ва маънавий-аҳлоқий сифатларни шакллантиришга ёрдам беради. Ўқувчиларда ватанпарварлик тарбияси

бўйича мактаб музей иши қуйидаги вазифаларни бажаришга имкон беради: музей педагогикаси билан таништириш орқали таълим соҳасини кенгайтириш; ижодкор шахсни ривожлантиришни уйгунлаштириш; миллий мағкурани шакллантириш; анъаналарни сақлаш, азалий қадриятларга қайтиш; ўз ватани фуқароларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш; янги музей учун аудитория шакллантириш; музей таъсир доирасини кенгайтириш. Мактаб музейи ўқитувчиларга тарих, маданият билан боблиқ таълим соҳаларида масаларни ечишга ёрдам беради. У ўқувчига жонли тарих билан юзлашишга имкон беради. Музей педагогикасининг вазифаси — ўқувчиларда бунёдкорлик фазилатини шакллантириш, ўтмиш, бугун ва келажак учун масъулиятни ҳис қилдириш, тарихий ва бошқа материалларни механик тарзда ёдлаб олиш эмас, балки уларга ҳис этиш орқали баҳо беришга ўргатишидир.

Мактабларда ташкил этиладиган “Менинг шаҳрим”, “Менинг замондошим”, “Шаҳрим тарихи” каби кўргазмалар, кичик музей хоналари маданий-маърифий, услубий, ахборот фаолиятини йўлга қўйиш асосида ташкил этилади ва болаларнинг ўзини ўзи бошқариш тизимини ривожлантириш билан боблик.

Мактаб музейлари ишида асл тарихий предметлар, тарихий ва маданий ёдгорликлар билан ишлаш метод ва усуслари асосий рол ўйнайди. Музейда сақланаётган материаллар асосида шаҳар тарихи, маданиятига багишлиланган синф соатлари ўтказилади. Бундан ташқари, тарихчилар билан давра сұхбатлари ҳам уюштирилади. Ўқувчиларга ўлкашунослик, туризмга багишлиланган конференцияларда ўз илмий ишлари билан қатнашишга имкон яратиш ҳам бу борадаги ишлар самарадорлигини оширишга ўз фойдасини бермай қолмайди. Халқимиз, давлатимизнинг асосий вазифаси миллий гоя асосида маданиятли шахсни вояга етказишидир. Зеро, инсониятнинг маданиятдан ташқаридаги ривожланиши маъносиздир.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ванслова, Е. Г. Музейная педагогика / Е. Г. Ванслова // Воспитание школьников — 2015 — №5. — С. 27–42.
2. Веселова, Е. Г. Школьный музей как уникальная развивающая среда и воспитательная си стема образовательного учреждения [Текст].
3. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишида “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
4. Сулаймон Амирқулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
5. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйгунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
6. Ҳайдаров Сулаймон Амирқулович. (2020). Тарих фанини ўқитишига оид экологик муаммолар масаласи «*ScientificProgress*» *Scientificjournal* 1(1). 12-17.
7. С.А. Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(9). 458-461.
8. Ҳайдаров Сулаймон Амирқулович. (2021). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишида тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги«*ScientificProgress*» *Scientificjournal* 1(3). 9-14.
9. Khaydarov S.A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. Conference Proceedings. Page 41-43.
10. Ҳайдаров. С. (2021). Ёшларда ватанпарварлик ҳиссини тарбиялашда “Бобурнома” асарига ишланган миниатюраларнинг аҳамияти. Ҳалқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 33-37 б.
11. Ҳайдаров. С. (2021). Заҳиридин Мухаммад Бобур хорижлик татқиқотчилар нигоҳида: подшоҳлик мўйқалами. Ҳалқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 43-46 б.
12. Сулаймон Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишида тасвирий санъат воситаларининг роли. *Science and Education*, 1(6), 174-179.

111	Каримов Б.	Қарши шахри хунармандчилигининг ўлкашуносликни ўрганишдаги аҳамияти.	249
112	Тилаев Э.	Туризм ривожланиши мамлакат иқтисодиёти омили.	253
	<b>8 – SHO‘BA:</b> <b>MUZEY PEDAGOGIKASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALAR</b> <b>Moderator: p.f.n. U.Marasulova</b>		
113	Abdullayeva B.S.	Muzeylarni o‘rganish va o‘rgatish jarayonlarining xalq ta’limi va oliv ta’lim muassasalari bilan hamkorligi.	255
114	Марасулова У.	Важность развития музейной педагогики в системе образования.	257
115	Терехова О.Е.	Музейная педагогика как средство творческого развития дошкольников.	261
116	Яздонов У.Т.	Музей педагогикасини ривожлантиришда медиа ахборот тизимнинг ўрни.	262
117	Хайдаров С.А.	Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда музей педагогикасини роли.	265
118	Саипова М. С.	Меъморий нақшлардаги замин-инсон-борлик фалсафаси.	267
119	Niyazova F.	The role of modern computer information technology and historical regional studies in the field of the history of our country.	268
120	Булатов С. С., Пўлатов М. А., Холмуродова Ф. Ф.	Педагогикани ривожлантиришда рамзларнинг инновацион ечими.	270
121	G'afforov Ya. X., Nigmatov A. X.	Muzey pedagogikasi va axborotlashtirish texnologiyasi.	272
122	Сайдов М. С., Курбанова Ш. Т.	Yoshlar tarbiyasida islom dinining o‘rni.	275
123	Ruziyeva O.	Possibilities of using pedagogical technologies in music education.	278
124	Qurbanova N. S., Islamova A. H.	Spiritual development and national identity the place of museums in society.	279
125	Boyjigitov Sh.	Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda ma’daniy me’roslarimizning o‘rni.	281
126	Ходжаева Д.Д., Құдратов Д.	Музей педагогикасининг инсон маънавиятига таъсири.	282
127	Yangiboyev G.R., Ergasheva M. A.	Milliylik va o‘zlikni anglashda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni.	284
128	Allayorov I.X., Xalimov Z., O’razmatova D.	Yosh avlod tarbiyasida muzeylarning o‘rni.	285
129	Аманова Д. К	Мактабгача ёшдаги болаларда мусика маъданиятини шакллантириш.	288
130	Бобоҷонов Д.К.	Хива шаҳрида замонавий музей.	289
131	Yaxiyaxonova M.M., Abdunazarova Z. Sh.	– Zamonaviy axborot texnologiyalari tizimida virtual muzeylarning o‘rni.	291